

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti asosida
tayyorlangan multimedia dasturi**

**Tadbirkorlikni jadal va yanada keng
rivojlantirish uchun barcha
sharoitlarni yaratish – eng muhim
vazifamizdir**

**Shavkat MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



TADBIRKORLAR – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yilning 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Uchrasuv olti soat davom etdi.



Davlat rahbari ishning ko‘zini biladigan, ishbiarmon yurtdoshlarimizga nisbatan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” iborasini qo‘lladi.



Keyingi 3-4 yilda tadbirkor uchun kredit va subsidiya olish, litsenziya, ko'chmas mulk va resurslarga ega bo'lish, eksport kabi masalalarda ko'plab yangi imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo'yicha mavjud cheklovlar, to'siq va g'ovlarning aksariyatiga barham berildi.



Mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi mehnat qilayotir.



Eng dolzarb muammolar tizimlashtirilib, ularni hal etishga qaratilgan 7 ta muhim yoʻnalish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.



Muloqotga tayyorgarlik jarayonida savol va takliflar koʻpayib ketgani sababli murojaatlarning qabul muddati 1 avgustdan 10 avgustga qadar, yaʼni 10 kunga uzaytirildi. Tadbirkorlardan 15 mingdan ortiq savol, taklif va tashabbuslar kelib tushdi va koʻpi hal etildi.

Birinchi yoʻnalish

KREDIT

Murojaatlarning 40 foizi biznesni moliyalashtirish va moliya-kredit masalalari bilan bogʻliq: kredit stavkalarining yuqoriligi va qisqa muddatga, noqulay shartlarda berilayotgani qayd etilgan.

Kelgusi yilda banklarga Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasidan bozor tamoyillari boʻyicha **qoʻshimcha 600 million dollar** ajratiladi. Bu mablagʻlar tanlov asosida ham davlat, ham xususiy banklarga beriladi.

Banklar kelgusi yili xalqaro moliya bozorlariga milliy valyutada **5 trillion soʻmlik yevrobond** chiqaradi.

Bundan buyon **dollar yoki yevro kursining oshishi tadbirkor uchun qoʻshimcha muammo yoki ortiqcha xarajatlarni yuzaga keltirmaydi.**

Tadbirkorlar milliy valyutadagi kreditlarni uzoq muddatga va hozirgi stavkalardan **kamida 5 foiz arzon** olish imkoniyatiga ega boʻladi.

Shu yil 1-oktabrdan **mikromoliya tashkilotlarini litsenziyalash tartibi toʻliq bekor qilinadi.** Endi ular oʻz faoliyatini boshlashi uchun faqatgina Markaziy bank reyestriga kirishlari kifoya.

Banklar chetdan resursni qanday valyutada jalb etishidan qat'i nazar, tadbirkorlarga **kreditni milliy valyuta – so'mda va biznes vakillari uchun maqbul foizlarda berish tizimi yo'lga qo'yiladi.**

Oilaviy tadbirkorlik yo'nalishida 2 mingga yaqin murojaat kelib tushgan. Endi bu yangi tizimda **odamlarimiz tadbirkorlik uchun kredit olaman deb hokimiyatga, bankka yoki boshqa idoraga borib yurmaydi, asbob-uskunalarni sotib olish uchun ta'minotchini qayerdan topaman, deb bosh qotirishga zarurat qolmaydi.**

Shu yil 1-oktabrdan boshlab ilgari 1 million dollargacha xorijiy valyutada olingan 6 mingga yaqin tadbirkorning jami 1 milliard dollarga yaqin kreditlari, tadbirkor va tijorat banklari o'rtasidagi kelishuvga asosan milliy valyutaga o'tkazib beriladi.

Kassa uchun xonalar tashkil etish, hududlarda filiallar ochishda Markaziy bankning roziligini olish shart bo'lmaydi. Ular tomonidan tadbirkorlarga beriladigan **mikrokredit (300 million so'm) va mikrolizing (600 million so'm) uchun amaldagi cheklovlar ham olib tashlanadi.**

Hukumat tomonidan xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilinayotgan imtiyozli mablag'lar hisobidan banklarga beriladigan **kreditlarning muddatini cheklash amaliyoti bekor qilinadi.**

Inflyatsiya darajasini joriy yilda 10 foizga, kelgusi ikki yilda 5 foizga tushirish reja qilingan. Bu esa kredit stavkalarini ham maqbul darajaga tushirish va muddatini uzaytirish imkonini beradi

Ikkinchi yoʻnalish **SOLIQ**

- Ichki bozorda teng raqobat boʻlishi uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga olib kelingan **xomashyo import bojidan ozod etiladi.**
- Mol-mulk, daromad soligʻi va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Jumladan, transport sohasida soliq yuki – 3 barobar, oziq-ovqat sanoatida – 2 barobar, toʻqimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa 20 foizgacha kamaydi.

- Soʻnggi uch yilda soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqardi.
- Pandemiya davrida xarajatlar keskin oshganiga qaramasdan, **qoʻshilgan qiymat soligʻi 20 foizdan 15 foizga tushirildi**, koʻproq zarar koʻrgan tarmoqlarga ijtimoiy soliq **12 foizdan 1 foizga pasaytirilib, mol-mulk va yer soliqlari toʻlovlaridan butkul voz kechildi.** Bu esa tadbirkorlar ixtiyorida qolgan 2 trillion soʻm mablagʻni biznes faoliyatiga sarflash imkonini berdi.

- Chetdan olib kelingan tovarlar uchun qoʻshilgan qiymat soligʻini 120 kun davomida boʻlib-boʻlib toʻlashda tadbirkorlarga foiz hisoblanmaydi va garov talab etilmaydi.

- Budjetdan tashqari jamgʻar-malarga yigʻimlarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili oʻrtacha 6 trillion soʻm soliq toʻlashdan ozod boʻldi.

- Mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida noruda qazilmalarga (qum-shagʻal, ohaktosh, gips, dolomit kabi) yer qaʻridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2 barobar kamaytiriladi.

- 2020-yil fevral oyida “Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarda roʻyxatdan oʻtgan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi. Jumladan, ushbu tadbirkorlar investitsiya miqdoridan kelib chiqib, **mol-mulk, yer va suv soliqlaridan 10 yilgacha ozod** qilingan.

- Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha qismini 7 kun ichida qaytarib berish tartibi joriy qilinadi. Bunday tartib tadbirkorlarga bir yilda o‘rtacha 350 milliard so‘m qo‘shilgan qiymat solig‘ini qisqa muddatda qaytarib olish va aylanma mablag‘larini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

- 13 mingta umumiy ovqatlanish korxonasi yil yakuniga qadar yer va mulk solig‘idan ozod qilinadi. Ularning boshqa soliqlardan mavjud 35 milliard so‘m qarzlari bo‘yicha to‘lov muddatlari joriy yil yakunigacha uzaytiriladi, kreditlarini qaytarish ham kechiktiriladi.

- Turizm kompaniyalari va mehmonxonalar turistik yig‘imlardan 2 yil muddatga ozod qilinadi. Bu hozirgi qiyin sharoitda tushumi kamayib ketgan 2 ming nafar tadbirkor ixtiyorida 150 milliard so‘m qoladi, degani.

● Pandemiya sababli tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha debitor qarzdorligi mavjud 5 mingga yaqin tadbirkorlarga jarima solish va hozirgi paytgacha qo'llangan **6 trillion so'mlik jarimalarni undirish joriy yil yakuniga qadar to'xtatiladi.**



● Kelgusi yil 1-yanvardan boshlab soliq idoralari o'z elektron dasturlari orqali biznes subyektlariga hisobotlarini shakllantirish xizmatini yo'lga qo'yadi.

● **Hisobotlarni kechiktirib topshirish bilan bog'liq moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi esa to'liq bekor qilinadi.**



**Prezident Shavkat Mirziyoyev:
“Soliq idoralari qo‘llayotgan ayrim
jarimalar soni va miqdorining
ortgani meni xavotirga solmoqda.
O‘tgan yili kameral nazorati
natijasida 336 ta korxonaga 51
milliard so‘m moliyaviy jarima
qo‘llangan bo‘lsa, joriy yilning 6
oyida 3 mingdan ziyod
tadbirkorlarga 900 milliard so‘mdan
ortiq jarima belgilangan”.**

- Amaldagi tartibga binoan, tadbirkorlar qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha hisobot topshirish bilan birga, undagi farqni qaytarish uchun soliq idoralariga alohida murojaat qilishga majbur. **Kelgusi yildan boshlab qoʻshilgan qiymat soligʻini qoʻshimcha hujjatsiz qaytarish tartibi amaliyotga joriy etiladi.**
- Kelgusi yildan boshlab qoʻshilgan qiymat soligʻini hisobga olishda soliq va bojxona idoralarining elektron bazalari oʻzaro bogʻlanadi. Yaʼni, **soliq idoralarida qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha mavjud ortiqcha toʻlovlar bojxona toʻlovlari amalga oshirayotganda ham inobatga olinadi.**
- Soliq idoralarining kameral nazorati natijasiga koʻra moliyaviy jarima qoʻllash amaliyoti bekor qilinadi.

Uchinchi yo'nalish

YER

Yerlarni iqtisodiy oborotga kiritish, ularni oldi-sotdi va garov obyektiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratildi.

Bundan buyon yer maydonlari faqat va faqat ochiq-oshkora auksion orqali xususiy mulk sifatida sotiladi yoki ijaraga beriladi.

Tasdiqlangan dasturga qo'shimcha ravishda yil yakuniga qadar yana 500 ta davlat aktivlari ochiq savdoga chiqariladi.

Barcha yerlar ikki toifaga, ya'ni qishloq xo'jaligi yerlari va qishloq xo'jaligiga kirmaydigan yerlarga ajratildi.

Qishloq xo'jaligiga kirmaydigan yer maydonlari esa faqat auksion orqali sotiladi.

Bundan keyin tadbirkorlar yerdan yuqori likvidli aktiv va garov obyektini sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi yerlari ochiq tanlov asosida faqat ijaraga beriladi. Tanlovda barcha – dehqon ham, fermer ham, agrofirma va klasterlar ham teng shartlarda ishtirok etadi.

Korxonalarining hozir egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi asosida **egallab turgan yer maydonlari, ularga mulk qilib rasmiylashtirib beriladi.** Ya'ni, bu yerni boshqa odam sotib olo olmaydi, uni xususiy lashtirishga faqat yer egasining o'zi haqli bo'ladi.



Har bir viloyatda maxsus jamg'armalar tashkil etiladi va yer maydonlarini sotishdan tushgan mablag' to'liq tuman va shaharlar ixtiyorida qoldirilib, tadbirkorlar uchun infratuzilma yaratish va rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Shu yil 1-noyabrga qadar **har bir hududda kamida mingtadan yer maydoni sotuvga chiqariladi.** Shuningdek, magistral yo'llar bo'yida loyiha asosida har bir hududdan **kamida 200 tadan yer maydoni auksionga qo'yiladi.**



Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Biz so‘nggi bir yarim yil davomida yerlarni auksion orqali ochiq-oshkora sotish bo‘yicha yetarli tajriba orttirdik. Lekin, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat hollarda auksionga qo‘yilgan yer maydonlari tadbirkorga ma‘qul joylardan emas, balki olis, chekka hududlardan, infratuzilmasi bo‘lmagan joylardan berilgan. Yaxshi yer maydonlari esa, har xil yo‘llar bilan hokimlar qarori asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri berib kelingani ham hech kimga sir emas”.


To'rtinchi yo'nalish INFRATUZILMA



✓ Kelgusi yil 1-yanvardan boshlab qiymati 200 milliard so'mga teng loyihalar bo'yicha elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlari va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq masalalarni hal etish to'liq davlatning zimmasida bo'ladi.

✓ Kelgusi ikki yilda mamlakatimiz bo'yicha qo'shimcha 200 ta sanoat zonasi tashkil etiladi. Ularning har biriga kamida 15 ta korxonani joylashtirish mo'ljallanib, elektr, tabiiy gaz, suv tarmoqlariga ulanish va yo'l infratuzilmasini yaratish to'liq davlatning zimmasida bo'ladi. Ushbu maqsadlar uchun kelgusi yili davlat budjetidan 2 trillion so'm mablag' ajratiladi.





Joriy yil 1 noyabrgacha 4 mingta transformatorni almashtirish, 35 ta podstansiya, 15 ming kilometr elektr tarmoqlarini yangilash ishlari yakuniga yetkaziladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun joriy yilning oʻzida ilk bor 3 trillion soʻm mablagʻ ajratilgan. Holbuki, oldingi yillarda bu ishlarning 10 foizi ham boʻlmagan.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasiga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va xususiy biznes kirib keldi. Natijada shu yil yakuniga qadar toʻliq xususiy investitsiyalar hisobidan umumiy quvvati **1 ming 800 megavatt boʻlgan 8 ta issiqlik va quyosh elektr stansiyalari ishga tushiriladi.**

Energetika vazirligi kelgusi yillarda bu kabi loyihalarni keskin koʻpaytirib, 2023-yilga qadar elektr energiyasi boʻyicha qoʻshimcha ishlab chiqarish quvvatlarini 4 ming 400 megavattga oshirishi shart.



Kelgusi yil boshidan elektr tarmog'iga ulanish to'liq elektron platformaga o'tkaziladi va barcha jarayonlar bir bosqichga tushiriladi. Tadbirkorlarni elektr tarmog'iga ulash muddati 20 kilovattgacha bo'lgan quvvatlar uchun 10 kun, 50 kilovattli quvvatlar uchun esa 20 kun etib belgilanadi.

Agar elektr ta'minoti korxonasi ishlarni muddatida yakunlamasa, tadbirkorlarga kompensatsiya to'laydi. Bu ishlar Davlat xizmatlari markazlari orqali tashkil etilib, muntazam nazorat qilib boriladi.

Beshinchi yoʻnalish

EKSPORT



Eksportyor korxonalarni qoʻllab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb etish borasida ham boshlangan islohotlar qatʼiy davom ettiriladi.



Yiliga 20 million dollardan ortiq eksport qiluvchi korxonalarga **5 million dollargacha imtiyozli kreditlar ajratiladi.**



Hukumat komissiyasi bir oy muddatda xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar uchun import boji stavkalarini pasaytirish boʻyicha qaror loyihasini ishlab chiqadi.

Yuqori sifat va nazorat tizimiga ega boʻlgan mamlakatlar (Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya...) roʻyxati shakllantirilib, ularda sertifikat berilgan asbob-uskuna va xomashyolarga milliy sertifikat olish amaliyoti bekor qilinadi.



Oʻtgan yili pandemiya davrida toʻqimachilik korxonalariga eksportdan valyuta tushumini kutmasdan, qoʻshilgan qiymat soligʻini qaytarib berish tartibi amalda oʻz samarasini berdi.

Joriy yil 1 oktabrdan ushbu tartib barcha tarmoqlarning halol ishlaydigan va intizomli boshqa eksportyorlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Oltinchi yoʻnalish

LOGISTIKA

Yuk avtomobillarini olib kirishga 2 yil avval bojxona imtiyozlari berilgani hisobidan avtotransportda tashish xizmatlari 2 barobar arzonlashdi, yuk hajmi esa 1,5 marta oshdi.

Imtiyozlarni yana 3 yilga uzaytirish boʻyicha yangi qaror imzolandi.

Yangi yildan oʻz vagoni va konteyneriga ega boʻlgan xususiy logistika operatorlari faoliyati yoʻlga qoʻyiladi. **Xususiy tadbirkorlarga temir yoʻl vagonlarini olib kelishga berilgan imtiyozlar 2025-yil 1-yanvargacha uzaytiriladi.**

Temir yoʻl tariflari qayta koʻrib chiqiladi. Bunda tadbirkorlarga oʻzimizda ishlab chiqarilmaydigan xomashyo importi uchun amaldagi tariflar kamida 25 foiz arzon boʻlishi nazarda tutilgan.

Transport vazirligi kelgusi yil 1-yanvardan boshlab har bir xizmatning tannarxi va uning tarkibini keng jamoatchilikka eʼlon qilib boradi.



Yettinchi yoʻnalish

Xususiy mulk daxlsizligi


*Prezident Shavkat Mirziyoyev:
“Tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni qisqartirish, sohadagi tartib-taomillarni soddalashtirish, xususiy mulk daxlsizligi borasidagi siyosatni qatʻiy davom ettiramiz”.*





Kelgusi yil 1-yanvardan boshlab subsidiyalarni ajratish boʻyicha murojaatlar “yagona darcha” tamoyili asosida qabul qilinadi, bu jarayonda ishtirok etadigan davlat idoralari soni 2-3 barobar qisqartiriladi.



Kelgusi yildan eʼtiboran tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun barcha ruxsat etuvchi hujjatlar “onlayn” tarzda rasmiylashtiriladi. Joriy yil yakuniga qadar litsenziya yoki ruxsatnomalar soni yana kamida 30 foizga qisqartiriladi.

 Shu yil 1 noyabrdan barcha texnik talablarga to'la javob beradigan, zamonaviy induksion pechlardan foydalanishga qo'yilgan cheklovlar bekor qilinadi.

 Savdo-sanoat palatasiga tadbirkorning roziligi bilan barcha tekshirishlarda ishtirok etish va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish vakolati beriladi.

 Bugungi kunda mahalliy hokimliklar bino va inshootlarning buzilishi bo'yicha 349 nafar tadbirkordan 123 milliard so'm qarzdor.

Shu yil 1-sentabrga qadar tadbirkorlar bilan barcha hisob-kitoblar yakuniga yetkazilib, **bir so'm ham qarzdorlik qolmasligi kafolatlanadi.**

Quyidagi masalalar alohida ta'kidlandi:

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, mahsulot turini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, mavjud quvvatlardan yanada samarali foydalanish;
- hozirgi keskin raqobat davrida kichik biznesga har tomonlama sharoit yaratish bilan birga o'rta va yirik biznesni yanada rivojlantirish;
- ishlab chiqarishning barcha yo'nalishlari bo'yicha faollikni kuchaytirish, buning uchun import o'rnini bosadigan va eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish orqali eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish;
- zamonaviy xizmat turlarini ko'paytirish, "IT", sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa yo'nalishlarda davlat xizmatlarini outsorsing asosida tashkil etishda ham xususiy sektor faol ishtirokchi va yetakchi bo'lishi;

- oliygohlarda o'qitilayotgan tadbirkorlik va biznesni boshqarish bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, o'quv dasturlari va metodologiyasini, amaliyot bilan uyg'un bo'lgan zamonaviy yondashuvlar asosida chuqur qayta ko'rib chiqish;
- el-yurtga tanilgan, tajribali tadbirkorlar maktab, kasb markazlari, oliygohlarda motivatsiya va mahorat darslari o'tkazishi, o'z maktablarini, o'quv markazlari va bazalarini tashkil etishi.

Har yili **“Yilning ilg'or tadbirkorlari”** kitobi chop etib boriladi. Bunday tadbirkorlarimizni munosib taqdirlash va rag'batlantirish uchun alohida davlat mukofotlari ham ta'sis etiladi.

20-avgust mamlakatimizda **“Tadbirkorlar kuni”** deb e'lon qilindi. Endi har yili aynan shu kuni Prezidentning biznes va ishbiarmon doiralar vakillari bilan ochiq muloqoti o'tkaziladi. Bir yillik ishlar natijalari sarhisob qilinib, eng ilg'or biznes vakillari aynan shu kuni davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi.



“Takror va takror aytaman, ishning ko‘zini biladigan, odamlarga mehnat qilish va daromad topish uchun sharoit yaratadigan, vatanparvar hamda fidoyi tadbirkorlarni biz doimo boshimizga ko‘taramiz”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti